



FORMATION AND DEVELOPMENT OF COOPERATION IN THE FIELD OF SOCIAL PROTECTION BETWEEN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND AUSTRIA AND SWITZERLAND

Husniddin Abdurakhimov

Basic doctoral student at Navoi State University

abduraximovhusniddin1997@gmail.com

Navoi, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: social protection, international credit agreements, investment, humanitarian aid, healthcare system, pharmaceuticals, medical technologies, international cooperation.

Received: 19.04.26

Accepted: 20.04.26

Published: 21.04.26

Abstract: This article analyzes the role of international cooperation in the development of social protection and healthcare systems in the Republic of Uzbekistan, particularly its relations with the Republic of Austria and the Swiss Confederation. The mechanisms for supporting the social sector through international credit agreements, investments, and humanitarian aid are examined.

The scientific novelty of the study lies in the fact that the economic and socio-humanitarian aspects of cooperation with Austria and Switzerland are analyzed in an integrated manner, with particular emphasis on their practical outcomes in the fields of medicine and pharmaceuticals.

The results show that the provision of medicines, modern medical equipment, and humanitarian assistance within the framework of international cooperation has contributed to strengthening the healthcare system and improving public health, especially in environmentally vulnerable regions.

AVSTRIYA VA SHVEYSARIYA KONFEDERATSIYASI BILAN HAMKORLIKDA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AMALGA OSHIRILGAN IJTIMOIIY HIMOYA QO‘SHMA DASTURLARI TARIXI

Husniddin Abduraximov

Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti

abduraximovhusniddin1997@gmail.com

Navoiy, O'zbekistan

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: ijtimoiy himoya, xalqaro kredit bitimlari, investitsiya, insonparvarlik yordami, sogʻliqni saqlash tizimi, farmatsevtika, tibbiy texnologiyalar, xalqaro hamkorlik.

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy himoya va sogʻliqni saqlash tizimini rivojlantirishda xalqaro hamkorlikning oʻrni, xususan Avstriya Respublikasi va Shveysariya Konfederatsiyasi bilan aloqalar tahlil qilinadi. Xalqaro kredit bitimlari, investitsiyalar hamda insonparvarlik yordami orqali ijtimoiy sohani qoʻllab-quvvatlash mexanizmlari yoritiladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda Avstriya va Shveysariya bilan hamkorlikning iqtisodiy va ijtimoiy-gumanitar jihatlarini oʻzaro bogʻliqlikda tahlil qilinib, ayniqsa tibbiyot va farmatsevtika sohasidagi amaliy natijalari ochib berilgan.

Natijalar shuni koʻrsatadiki, xalqaro hamkorlik doirasida dori-darmonlar, zamonaviy tibbiy uskunalari va insonparvarlik yordamlari yetkazib berilishi sogʻliqni saqlash tizimini mustahkamlashga hamda ekologik muammoli hududlarda aholi salomatligini yaxshilashga xizmat qilgan.

ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ СОТРУДНИЧЕСТВА В СФЕРЕ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ МЕЖДУ РЕСПУБЛИКОЙ УЗБЕКИСТАН, АВСТРИЕЙ И ШВЕЙЦАРИЕЙ

Хусниддин Абдурахимов

Базовый докторант Навоийского государственного университета

abduraximovhusniddin1997@gmail.com

Навоий, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: социальная защита, международные кредитные соглашения, инвестиции, гуманитарная помощь, система здравоохранения, фармацевтика, медицинские технологии, международное сотрудничество.

Аннотация: В данной статье анализируется роль международного сотрудничества в развитии системы социальной защиты и здравоохранения Республики Узбекистан, в частности взаимодействие с Республикой Австрия и Швейцарской Конфедерацией. Рассматриваются механизмы поддержки социальной сферы посредством международных кредитных соглашений, инвестиций и гуманитарной помощи.

Научная новизна исследования заключается в том, что экономические и социально-гуманитарные аспекты сотрудничества с Австрией и Швейцарией проанализированы во взаимосвязи, с особым акцентом на их практические результаты в сфере медицины и фармацевтики.

Результаты показывают, что поставки лекарственных средств, современного медицинского оборудования и гуманитарной помощи в рамках международного сотрудничества способствовали укреплению системы здравоохранения и улучшению состояния здоровья населения, особенно в экологически уязвимых регионах.

Kirish. XX asrning oxiri va XXI asr boshlarida global miqyosda iqtisodiy integratsiya jarayonlarining jadallashuvi davlatlar o'rtasidagi hamkorlik munosabatlarini yangi bosqichga olib chiqdi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda ijtimoiy sohani, jumladan sog'liqni saqlash tizimini barqaror rivojlantirish masalasi dolzarb muammolardan biriga aylandi. Shu nuqtayi nazardan, xalqaro moliyaviy resurslar, investitsiyalar va gumanitar yordamlar ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, qisqa vaqt ichida bozor iqtisodiyotiga o'tish, ijtimoiy sohani isloh qilish hamda aholi farovonligini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Biroq o'tish davrining dastlabki bosqichlarida mavjud iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni bartaraf etishda xalqaro hamkorlik alohida ahamiyat kasb etdi. Xususan, xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan yo'lga qo'yilgan iqtisodiy aloqalar ijtimoiy sohani moliyalashtirish va zamonaviy tibbiy infratuzilmani shakllantirishda muhim omil bo'ldi.

Mazkur tadqiqot doirasida O'zbekistonning Avstriya Respublikasi va Shveysariya Konfederatsiyasi bilan hamkorligi misolida xalqaro aloqalarning ijtimoiy va tibbiy sohalarga ta'siri tahlil qilinadi. Ayniqsa, xalqaro kredit bitimlari, investitsiya jarayonlari hamda insonparvarlik yordami orqali sog'liqni saqlash tizimini qo'llab-quvvatlash masalalari ilmiy jihatdan muhim hisoblanadi.

Shu bilan birga, mazkur yo'nalishda amalga oshirilgan amaliy chora-tadbirlarning samaradorligi, ularning aholi salomatligi va ijtimoiy himoya tizimiga ta'siri yetarli darajada

o'rganishni talab etadi. Ushbu holat tadqiqotning dolzarbligini belgilab beradi hamda mavzuning ilmiy va amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy tadqiqotni yaratish jarayonida O'zbekistonning Avstriya Respublikasi va Shveysariya Konfederatsiyasi bilan ijtimoiy sohadagi hamkorligiga tarixiy, qiyosiy tahlil, davriy taqqoslash, xolislik tamoyillari va kompleks yondashuv metodlaridan foydalanildi. Davlatlararo va madaniy munosabatlarning o'rnatilishi va rivojlanishida davlat, nodavlat, xalqaro muassasalar va tashkilotlarning o'rni va ahamiyati davriy matbuot nashrlari, ushbu mavzuga oid ilmiy ishlar, avtoreferatlar hamda arxiv hujjatlari asosida o'rganildi. Ijtimoiy, iqtisodiy sohalardagi hamkorlik aloqalari natijasida Markaziy Osiyo, xususan O'zbekistonning iqtisodiy imkoniyatlari, investitsiya salohiyatidagi o'zgarishlar hamkorlikdan oldingi davrga qiyoslanib, aniq statistik ma'lumotlar asosida solishtirildi.

Natijalar va muhokama. Ijtimoiy himoya dasturlari bugungi global dunyoda har bir rivojlanayotgan mamlakatlardagi eng dolzarb va islohotlar talab qiluvchi tarmoqlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi bozor iqtisodiyotiga bosqichma bosqich o'tishda aholiga ijtimoiy himoya va ijtimoiy yordam dasturlarini ham qo'shib olib bormoqda. Bu borada aholining ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishda dunyoda yetakchi davlatlar qatorida turgan Avstriya Respublikasi va Shveysariya Konfederatsiyasi mamlakatlari bilan hamkorlik muommolar yechimida muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. 1999-yilda O'zbekiston Respublikasida kommunal infratuzilmani rivojlantirish va suv xo'jaligi tizimini takomillashtirish doirasida xalqaro hamkorlik loyihalari amalga oshirilgan. Ushbu jarayonda Avstriya tomoni texnik va institutsional yordam ko'rsatgan xorijiy hamkorlardan biri sifatida ishtirok etgan. Arxiv hujjatlarida qayd etilishicha, „Avstriya mutaxassislari tomonidan suv ta'minoti va oqova suvlar bilan bog'liq muhim yo'nalishlarda ekspert baholash ishlari olib borilgan. Jumladan, suv ishlab chiqarish (Water Production) sohasida avstriyalik maslahatchi Gunnar Demoulin tomonidan mavjud inshootlarning texnik holati, suv ishlab chiqarish hajmi, samaradorligi hamda amaldagi quvvatlarning yetarliligi baholangan. Ushbu tadqiqotlar asosida tizimni yaxshilash strategiyasi ishlab chiqilgan va tezkor investitsiyalar talab etiladigan yo'nalishlar aniqlangan. Mazkur ishlar Avstriya Trast Fondi (Austrian TF) tomonidan moliyalashtirilgan.

Shuningdek, kanalizatsiya tarmoqlari (Sewer Network) bo'yicha avstriyalik mutaxassis Konrad Wutscher ishtirokida suv uzatish tarmoqlari va nasos stansiyalarining texnik holati, suv oqimlari hajmi, mavjud infratuzilmaning samaradorligi va foydalanishga yaroqliligi tahlil qilingan. Tadqiqotlar natijasida modernizatsiya va tezkor investitsiyalarni talab qiluvchi muhim yo'nalishlar belgilab berilgan.

Bundan tashqari, oqova suvlarni tozalash (Waste Water Treatment) sohasida ham Konrad Wutscher tomonidan tozalash inshootlarining texnik imkoniyatlari, tozalangan suv hajmi, samaradorlik darajasi hamda ekologik jihatlar baholangan. Ushbu faoliyat ham Avstriya hukumati tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlangan bo'lib, atrof-muhitni muhofaza qilish va sanitariya holatini yaxshilashga qaratilgan“ [1;49]. Umuman olganda, 1999-yilda Avstriya va O'zbekiston o'rtasidagi hamkorlik texnik va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan sohalarni qamrab olib, aholining hayot sifatini yaxshilash, ekologik xavfsizlikni ta'minlash hamda kommunal xizmatlar samaradorligini oshirishga xizmat qilgan. Ushbu hamkorlik ijtimoiy-gumanitar yo'nalishda, xususan, jamoat salomatligi, ekologiya va barqaror rivojlanish masalalarida muhim ahamiyat kasb etgan.

Albatta ijtimoiy ko'mak faqat moddiy jihat bilan cheklanib qolmagan. Ma'naviy va ma'rifiy hamkorlik ham ijtimoiy dasturlarning bir qismi hisoblangan. Chunki Avstriya buyuk madaniy daholar yetishib chiqqan o'lka. Ushbu fikrimizga quyidagi faktorlarni dalil sifatida keltirib o'tmoqchimiz: “Buyuk kompazitor Motsartning ona shahri Zalsburg madaniy qadamjolari bilan qishin-yozin chinakam sayyohlik o'lkasi ekanligi, 2003-yilda Avstriyaning Grats shahriga “Yevropa madaniyati poytaxti” maqomi berilishi, 2009-yilda Lins shahri «Yevropaning madaniyat poytaxti» maqomini olgani, Vena «Yevropaning madaniyat metropolisi» nomiga sazovor bo'lganligi” [2;31-35]. Ushbu hamkorlik ham fuqarolarning ijtimoiy farovonligiga katta hissa qo'shib kelmoqda.

2022-yil 25-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri Abdulaziz Kamilov va Avstriya Respublikasining Yevropa va tashqi ishlar federal vaziri Aleksandr Shallenberg ikki davlat o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilganining 30 yilligi munosabati bilan o'zaro tabrik almashdilar. “Biz Avstriya bilan ochiq va konstruktiv muloqotni davom ettirishdan, siyosiy, parlamentlararo, iqtisodiy va ta'lim sohalarida hamkorlikni yanada rivojlantirishdan manfaatdormiz [3;]. Shuningdek bu sohada mustaqillik yillarida Shveysariya bilan ijtimoiy xizmat ko'rsatishning turli sohalarida, xususan aholi salomatligini yaxshilash masalasida tibbiyot sohasida hamkorlik yo'lga qo'yildi. Ma'lumki 1863-yilda Shveytsariyada "Xalqaro yaradorlarga yordam berish qo'mitasi" (1864-yildan boshlab “Xalqaro Qizil Xoch” jamiyati) tashkil etilgan. 1992-yil 28-mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan rasman Xalqaro Qizil Xoch va Qizil Yarim Oy Harakatiga qo'shildi. Tashkilot doirasida “xayriya o'n kunlik”larini muntazam o'tkazib turish — yer yuzining jamiki mamlakatlaridagi Qizil Xoch va Qizil Yarimoy jamiyatlarida doimiy an'anaga aylangan. “O'zbekistonda 1992-yil dekabr oyida shu tadbir asosida 100 million so'm jamg'arilgan. Bu mablag'larning hammasi muhtoj

fuqarolarning ehtiyojlari uchun sarflandi. Nogironlarga 10 million so‘mlik aravachalar hadya etildi, qariganda muhtojlikda qolganlar hamda ko‘p bolali oilalarga 40 million so‘m mablag‘ moddiy yordam tariqasida sarflandi. Tabiiy ofatdan zarar ko‘rgan fuqarolarga 20 million so‘mlik yordam ko‘rsatildi. Urushlarda jabrlangan tojik birodarlarimizga 30 million so‘mlik oziq-ovqat, kiyim-kechak yetkazib berdik.

“Shveysariyadan O‘zbekistonga 1992-yilda 2 mln. 74 ming AQSh dollari miqdorida dori-darmonlar yetkazib berilgan”[4;6].1993-yil dekabr oyida o‘tkazilgan xayriya tadbirida 350 million so‘mdan ko‘proq pul jamg‘arildi, Germaniya va Shveysariya Qizil Xoch jamiyatlaridan million marka bahosida tibbiy uskunalar va dori-darmonlar keltirildi”[5;3]. O‘tkazilayotgan tadbirlar natijasida respublikamizning 500 dan ortiq shifoxonalariga yordam ko‘rsatildi. “Olmoniya va Shveysariya Qizil xoch jamiyatlari vakillari Orolbo‘yining kasallik ko‘p tarqalgan mintaqalarida bo‘lib, vaziyat bilan tanishdilar. Shundan so‘ng Urganchga insonparvarlik yuklari ortilgan avtopoyezd keldi. Tibbiyot uskunalari, dori-darmonlar ikkala viloyatdagi 32 ta sog‘liqni saqlash muassasasiga berildi. Shuningdek, bu xalqaro tashkilotlar Buxoro va Xorazm viloyatlari shifokorlariga bir million nemis markasi va shveysar frankini sovg‘a qildi”[6;1]. Yuqoridagi faktlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston va Shveysariya o‘rtasidagi hamkorlik faqat iqtisodiy yoki siyosiy yo‘nalishlar bilan cheklanib qolmay, balki ijtimoiy-gumanitar sohalarda ham chuqur va samarali rivojlangan. Xususan, sog‘liqni saqlash tizimini qo‘llab-quvvatlash, aholi salomatligini yaxshilash hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarga yordam ko‘rsatish yo‘nalishidagi hamkorlik ikki tomonlama munosabatlarning insonparvarlik tamoyillariga asoslanganini yaqqol namoyon etadi.

“1994-yil 29-martda Shveysariyaning yuksak sifatli dori-darmonlar ishlab chiqaradigan, dunyodagi eng yirik biotexnologik kompaniyalardan biri hisoblanadigan «Roche» firmasi O‘zbekistonlik tibbiyot xodimlariga insonparvarlik yordami sifatida 10 ming Shveysariya franki miqdorida taqchil dori-darmonlarni hadya qildi. 1994-yilda firma Toshkentda o‘zining vakolatxonasini ochdi. Respublikada tashkil etilgan insonparvarlik yordamini qabul qilish va tarqatish komissiyasi Shveysariyadan kelgan hadyani turli tibbiyot muassasalariga tarqatdi. Bu hadyadan bahramand bo‘lgan muassasalar orasida Toshkent davlat tibbiyot institutining shifoxonalari, O‘zbekiston Sog‘liqni saqlash vazirligining onkologiya va radiologiya instituti, respublika klinik shifoxonasi, 1-shahar shifoxonasi, onkologiya va psixonevrologiya dispanserlari bor” [7;1].

Ijtimoiy himoya dasturlarini moliyalashtirish maqsadida ushbu hukumatlar bilan bank shartnomalari ham yo‘lga qo‘yildi. “O‘zbekiston hukumati Germaniya, Shveysariya, Kanada,

Xitoy Xalq Respublikasi, Gollandiyaning banklari va firmalari bilan 1,5 milliard AQSH dollariga yaqin summada hukumatlararo 32 ta yirik kredit bitimi tuzdi va hozir bu bitimlar amal qilmoqda.

1994-yil mobaynida respublikaga 640 million AQSH dollari miqdorida investitsiya kreditlari berish to'g'risida xalqaro moliya muassasalari va xorijiy sarmoyadorlar bilan tuzilgan bitimlar amal qila boshladi, shundan salkam 300 million dollari aniq obyektlarni kreditlash tarzida rasmiylashtirildi". [8; 151]

"1994-yil 6-aprelda Shveysariyadan ekologiya vaziyati chigallashgan Orolbo'yi aholisiga mo'ljallangan insonparvarlik yordami keldi. Toshkentga yetib kelgan buyuk Buxoro, Xorazm viloyatlaridagi va Qoraqalpog'istondagi tegishli tashkilotlarga yetkazib beriladi. Uchta temir yo'l konteynerida 20 tonna bolalar taomi. Bu qimmatli oziq-ovqat mahsulotlarini O'zbekistonga Shveysariya hukumati hadya qilgan. Respublikamiz Qizil Yarim Oy jamiyati bilan hamkorlikda xayriya tadbirini amalga oshirayotgan Shveysariya Qizil xoch jamiyati insonparvarlik yordami ko'rsatish tashabbuskori bo'ldi. Jamiyat 1994 – yil fevralda Buxoro va Xorazm viloyatlari tibbiyot xodimlariga kamyob dori-darmon, bir marta foydalaniladigan shprints, jarohatni bog'lash materiallari, boshqa tibbiy asbob-uskunalar yuborgan edi.

Bolalar taomi ortilgan konteynerlar Qizil Yarim Oy jamiyatining viloyat bo'limlariga yetib bordi va u yerdan shifoxonalarga jo'natildi. Hadyani Nukusdagi bolalar respublika kasalxonasi, Toshkent viloyatidagi Orolbo'yi bolalari davolanayotgan «Chimiyon» silga qarshi bolalar sanatoriysi, Buxoro va Xorazm viloyatlaridagi sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek Qizil Yarim Oy jamiyati shafqat xizmati homiyligidagi serfarzand va kamxarj oilalar oldi. O'zbekistonda tuzilgan maxsus komissiya insonparvarlik yordami taqsimlanishini nazorat qildi" [9;2]. Yuqoridagi ma'lumotlar Shveysariya tomonidan O'zbekistonga ko'rsatilgan insonparvarlik yordami tizimli va maqsadli yo'naltirilganini ko'rsatadi. Xususan, «Roche» kompaniyasining tibbiyot muassasalarini qo'llab-quvvatlashi hamda Orolbo'yi hududiga yetkazilgan oziq-ovqat va tibbiy yordamlar sog'liqni saqlash tizimini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etgan. Ushbu yordamlar ayniqsa ekologik muammolar kuchli ta'sir ko'rsatgan hududlarda aholi salomatligini saqlash va ijtimoiy himoyani ta'minlashda muhim rol o'ynagan. Shuningdek, yordamning markazlashgan tartibda taqsimlanishi va maxsus komissiyalar orqali nazorat qilinishi uning samaradorligini oshirishga xizmat qilgan. Bu esa Shveysariya bilan hamkorlikning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-gumanitar yo'nalishda ham barqaror va ishonchli asosga ega ekanini ko'rsatadi.

1994-yilda respublikada mahalliy dori-darmon sanoati aholining dori-darmonga bo'lgan talabining 5-8 foizini bajardi, xolos. Shu sababli jahonning ko'plab mamlakatlari bilan

hamkorlikda bu sohada qo'shma korxonalar ochildi. Bu holatda faqat chetdan dori-darmon keltirish orqali ta'minotni yaxshilash mumkin edi. "Shveysariyaning "Siba-Geygi", "Xoffman lya Rosh", Germaniyaning "Shering AG", "Xexst" kompaniyalari va boshqa xorijiy firmalar bilan shartnomalar imzoladik va dorilar keltirila boshlandi". Bu davrda ta'minotni yaxshilash maqsadida ham davlat tomonidan, ham xususiy dorixonalar tomonidan mahsulot keltirish yanada faollashdi.

Zamonaviy tibbiy uskunalar va dori-darmonlar va farmatsevtika mahsulotlarini tanishtirish maqsadida 1994-yil 24 - 28 oktyabr kunlari "Xamar" Xalqaro Aloqalar markazi (O'zbekiston Rassomlar uyushmasi binosi)da "Toshkent-94" nomli tibbiy uskuna va farmatsevtikaga oid mahsulotlarning xalqaro ko'rgazmasi bo'lib o'tdi. Unda jahondagi 40 dan ortiq mamlakatning firmalari ishtirok etishdi. "Unda Avstriyaning "Sy-lab" Shveysariyaning "Hospitex" kompaniyalari ishtirok etishdi. Ko'rgazma Markaziy harbiy gospitalning 125 yilligiga bag'ishlangan"[10;4]. Shveysariyaning «Xoffmann-Lya Rosh» firmasi mutaxassisleri dunyoga eng yirik dori-darmon ishlab chiqaruvchilardan biri sifatida tanilgan. Boisi vakili Rolf Fenigmer ta'kidlaganidek, o'tgan yili firmaning butun dunyo bo'ylab qilgan savdosi hajmi 10,5 milliard AQSH dollarini tashkil qilgan. Bu yerda ishlovchi xodimlarning soni esa 56 mingdan ziyod. Korxonalar orasida bu raqam juda ulkan hisoblanadi. Firma turli dori-darmonlarni kashf etish va xalqaro bozorga chiqarish uchun katta sarmoya sarflamoqda. Boisi shundaki, firma tomonidan yaratilgan dorilar onkologik kasalliklarga qarshi kurashda juda qadrlanadi. Shveysariyaning "Xoffmann Lya Rosh" singari bir qator yetakchi kompaniyalari ishtirok etgan ko'rgazmada tashxis qo'yish (diagnoz) asbob-anjomlari, stomatologiya kabinetlari hamda laboratoriyalari, bir marta ishlatiladigan tibbiy jihozlar, shuningdek, dori-darmonlar va boshqa noyob tibbiy asbob-uskunalarni namoyish etildi.

Ko'rgazmani o'tkazishdan asosiy maqsad — Respublikamiz tibbiyot mutaxassislarini dunyodagi ilg'or mamlakatlarning shu sohaga oid yangiliklaridan xabardor qilishdir. Ishtirokchi tashkilotlar orasida "O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi", "O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qoshidagi harbiy-tibbiy boshqarmasi", "O'z tibtexnika", "O'z begim Interneyshnl" tashkilotlari bor edi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston Respublikasining Avstriya va Shveysariya bilan ijtimoiy himoya sohasidagi hamkorligi mustaqillik yillarida izchil shakllanib, bosqichma-bosqich rivojlandi. Tahlillar ushbu hamkorlik xalqaro kredit bitimlari, investitsiyalar va insonparvarlik yordami orqali ijtimoiy sohani, ayniqsa sog'liqni saqlash tizimini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaganini tasdiqlaydi.

Shuningdek, dori-darmonlar, tibbiy uskunalar va boshqa yordamlarning yetkazib berilishi aholi salomatligini yaxshilashga, ayniqsa ekologik muammoli hududlarda ijtimoiy himoyani kuchaytirishga xizmat qilgan. Shu asosda, tadqiqotda ilgari surilgan fikrlar tasdiqlandi va mazkur hamkorlikning O‘zbekiston ijtimoiy siyosatidagi ahamiyati asoslab berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘z MA. M-37 fond, 1-ro‘yxat, 4767-yig‘ma jild. 49-varaq.
2. “Österreich” (Avstriya) “Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi” Toshkent - 2014 B. 23,27,31,35
3. O‘zbekiston Respublikasi TIV rasmiy sahifasi <https://t.me/uzbekmfa>. O‘zbekiston TIV Abdulaziz Komilov.
4. O‘z MA. M-37 fond, 1-ro‘yxat, 454-yig‘ma jild. 6-varaq.
5. “Xalq so‘zi” gazetasi. “Dunyo ezgulikdan yaralgan” maqolasi. 1994-yil 5-fevral. №26 (774). B. 3
6. “Xalq so‘zi” gazetasi. “«Shifobaxsh» avtopoyezd Urganchda” maqolasi. 1994-yil 26-fevral. №41 (789). B.1
7. “Xalq so‘zi” gazetasi. “SALOMATLIK — TUMAN BOYLIK“ maqolasi. 1994-yil 30-mart. №62 (810)-son. B.2
8. I.Karimov. “Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir”. Toshkent – “O‘zbekiston”.1996-y.B.151
9. “Xalq so‘zi” gazetasi. ”Shveytsariya hukumatining hadyasi” maqolasi. 194-yil 8-aprel.№69 (817). B.2
10. “Xalq so‘zi” gazetasi. “Tibbiy uskuna va farmatsevtikaga oid mahsulotlarning xalqaro ko‘rgazmasi” maqolasi. 1994-yil 14-oktabr.№202 (950)-son. B.4